

**O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA IJTIMOIY  
SOHA VA TA'LIMNING AHAMIYATI**  
**ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА И ОБРАЗОВАНИЯ В  
СНИЖЕНИИ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ**  
**IMPORTANCE OF SOCIAL SECTOR AND EDUCATION IN REDUCING  
POVERTY IN UZBEKISTAN**

*Sirojiddinova Iroda Maxammadovna*  
Andijon mashinasozlik instituti dotsenti  
E-mail: [siroziddinovairodada@gmail.com](mailto:siroziddinovairodada@gmail.com)  
Tel: +998916058999

*Yuldasheva Maftuna Qutbidin qizi*  
Andijon mashinasozlik instituti magistranti  
E-mail: [m.k.yuldasheva@gmail.com](mailto:m.k.yuldasheva@gmail.com)  
Tel: +9989113 37223

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekistonda kambag'allik darajasini qisqartirishda davlat mablag'larining o'tgan yillar mobaynida sarf qilinish tahlili moliya vazirligi ma'lumotlari asosida ta'lim va kadrlar tayyorlash, sog'lijni saqlash, fan, madaniyat va sport xarajatlariga bo'lgan samaradorligi o'rganiladi, kambag'allik ko'rsatkichlarni kamaytirish masalalari ko'rib chiqiladi va ayrim mamlakatlar misolida amaliyotga joriy etish usullari namoyish etiladi. Bunda iqtisodiy o'sishning mamlakat rivojlanishiga bo'lgan katta ta'siri va unga ta'larning ahamiyati haqida fikr yuritilib, kambag'allikka qarshi kurashishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar va ularning qanday tartibda qo'llanilish usullari ko'rib chiqiladi.

### **Аннотация**

Анализ расходования государственных средств на снижение уровня бедности в Узбекистане за последние годы рассматривается на основе данных Министерства финансов, в котором оценивается эффективность государственных расходов на эффективность образования и подготовки кадров, здравоохранения, науки, изучена культура и спорт, показаны вопросы сокращения бедности и методы реализации на примере некоторых стран. В этой статье обсуждаются влияние экономического роста на развитие страны и важность образования, а также реформы, которые следует реализовать в борьбе с бедностью, и методы их применения.

### **Annotation**

Analysis of the spending of state funds in reducing the level of poverty in Uzbekistan over the past years are considered based on the data of the Ministry of

Finance in which the efficiency of government spending on the effectiveness of education and personnel training, healthcare, science, culture and sports is studied, issues of poverty reduction and implementation methods are shown on the example of some countries. Moreover, the impact of economic growth on the country's development and the importance of education are discussed and the reforms that should be implemented in the fight against poverty and the methods of their application are considered in this article.

### **Kalit so'zlar**

Kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy soha, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, davlat xarajatlari, ta'lim, sarmoya.

### **Ключевые слова**

Сокращение бедности, экономический рост, социальная сфера, социальная поддержка населения, государственные расходы, образование, инвестиции.

### **Key words**

Poverty reduction, economic growth, social sphere, social support of the population, government spending, education, investment.

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisiga tashrifidan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibidagi masala bo'lgan kambag'allikni qisqartirish muammosi ko'tarildi. Bu savol aniq shakllantirildi va ilg'or xalqaro tajriba asosida samarali vositalarni amaliyatga tatbiq etishga qaror qilindi, uni hisoblash mezonlari va usullari, shuningdek, qashshoqlikni qisqartirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishga qaror qilindi.

Kambag'allik muammosi hamon insoniyatning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda [1]. 2017-yilda 689 million kishi kuniga 1,9 dollardan kam daromad olgan, bu Jahon banki standartlari bo'yicha "o'ta qashshoqlik" deb tasniflanadi.

Qashshoqlik hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda insoniyatning mavjudligi uchun asosiy tahliddir. 2017-yilda dunyo bo'yicha aholining taxminan 9.2 foizi dunyo iqtisodining eng qashshoqlik chegarasidan ham quyi, kuniga 1.9 dollardan kam daromad topuvchilarni tashkil qilgan. Bu 689 million aholi 2015 yilgiga nisbatan 52 millionga kam. COVID-19 (koronavirus) pandemiyasi bir avlodda birinchi marta global qashshoqlikda sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Pandemiya sababli yana 120 milliondan ortiq odamlar kambag'allikda yashashga majbur bo'ldi.

Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2008-2019-yillarda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga sarflangan xarajatlar tahlil qilinganda ko'rishimiz mumkinki, ushbu maqsadlar uchun sarf-xarajatlarga ta'lim va kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat va sport xarajatlari ham kiradi.

Xarajatlarning maksimal darajada pasayishi va ularning tiklanishining boshlanishi 2015 yilda sodir bo'lgan va u butun davr uchun eng past ko'rsatkich 2 foizni

tashkil etgan. Navbatdagi ikki yil 2016 yildagi 3 foiz va 2017 yildagi 6 foizdan bosqichma-bosqich tiklanishni boshlagan. 2018 yildan 27 foizga, 2019 yilda esa 36 foizga sezilarli darajada yuqorilash kuzatildi. Ushbu o'sish 2017 yilda boshlangan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan. islohotlar bilan bog'liq bo'lган.

Davlat sarf-xarajatlarining ijtimoiy sohaga ta'sir etishini baholash maqsadga muvofiqdir. Ma'lumotlardagi yetishmovchilik sababli davlat xarajatlarining kambag'allikka ta'sir etishini baholash bevosita murakkablashadi. Biroq turli xil boshqa ma'lumotlarning mavjud ekanligi ushbu sohada davlat xarajatlarining mahsuldarligi va samaradorligini bilvosita baholashga imkon beradi.

Iqtisodiy o'sish hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda hayot sifatini yaxshilash va qashshoqlikni kamaytirishning eng ta'sirli vositasi sifatida baholanadi va u yanada farovonlik va imkoniyatlar doiralarini yaratishi mumkin. Kuchli o'sish va kasbga yo'naltirish imkoniyatlari ota-onalarning farzandlarini ta'limga jalb qilishlari orqali ularga sarmoya kiritish uchun rag'batlantirilishini yaxshilaydi. Bu esa o'z navbatida, kuchli va o'sib borayotgan boshqaruvni rivojlantirishga bosimni takomillashtiradigan tadbirkorlar guruhini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham kuchli iqtisodiy o'sish inson taraqqiyotiga yordam beradi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Ko'plab rivojlanayotgan davlatlarning tadqiqot naijalari kuchli dalillar bilan shuni ko'rsatadi-ki, kuchli va barqaror iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirishda eng muhim yagona yo'l hisoblanadi. Ushbu mamlakatlararo tadqiqotlarning odatiy bahosiga ko'ra, mamlakat o'rtacha daromadining 10 foizga oshishi qashshoqlik darajasini 20 dan 30 foizgacha pasaytiradi [2].

Quyida ko'plab mamlakat tadqiqotlari kambag'allikni qisqartirishda iqtisodiy o'sishning kuchini namoyish etgan:

❖ 1979-yildan beri Xitoy o'zining 450 milliondan ortiq aholisini qashshoqlikdan qutqara oldi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 1985 va 2001 yillar mobaynida kambag'allikning bunday ulkan qisqarishida iqtisodiy o'sish juda muhim o'rinn tutgan [3].

❖ 1980-yillarda Hindistonda qashshoqlik sezilarli darajadi kamaydi va bu ko'rsatkichlar 1990-yillargacha ancha tezlashdi. Bu esa Hindistonning iqtisodiy o'sish rekordi bilan kuchli bog'liq edi [4].

❖ Mozambik iqtisodiy o'sish tufayli qisqaroq vaqtida kambag'allikning tez pasayishini ko'rsatdi. 1996 va 2002 yillar orasida iqtisodiyot 62 foizga o'sdi va kambag'al aholi ko'rsatkichi 69 foizdan 54 foizga tushdi [5].

Bu davrlardan ko'plab saboqlar bor, xususan, yuqorida keltirilgan davlatlarda an'anaviy donolikdan chetga chiqqan holda islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Xitoy, Hindiston va boshqa bir qancha Osiyo mamlakatlaridagi jadal iqtisodiy o'sish o'ta kambag'allikda yashovchi aholi sonining mutlaq kamayishiga olib keldi.

Inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning asosiy omillaridan biri bu ta'limdir. Ta'lim hayot sifatini yaxshilaydigan, odamlarning mahsuldarligini oshiradigan va ish imkoniyatlari bilan band bo'lish orqali kambag'allik darajasini yo'q qiladigan omil hisoblanadi. 2016-yildan 2019-yilgacha maktabgacha ta'lim muassasalari soni respublika bo'yicha 1830 taga ko'paydi, ushbu muassasalarda pedagogik xodimlar soni va o'quv o'rirlari mos ravishda 36,8 ming va 223,7 mingtaga ko'paydi. Shu davrda 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 23,8 foizdan 40 foizga oshdi (2020 yilda 60 foiz). Shuningdek, keyingi yillarda ta'lim muassasalari soni sezilarli darajada oshdi – 2016-2019 yillar orasida mos ravishda 9720 tadan 10090 taga yetdi va 49 ta yangi oliy ta'lim muassasasi ochildi. 2020-yilga kelib oliy o'quv yurtlarida qabul kvotalari 2017-yilga qaraganda 2,5 barobarga oshdi va natijada yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qabuli 9 foizdan 25 foizga oshdi.

Oxirgi 4 yil ichida sog'liqni saqlash sohasida ham keng ko'lamlı islohotlar amalgalashdi. Kasalxonalar va ulardagagi o'rirlar soni mos ravishda 99 va 21,4 mingtaga oshdi. Aholi umr ko'rish davomiyligi 2017-yildagi 73,7 yoshdan 2020-yilda 74,6 yoshgacha oshdi. Har 100 ming kishiga sil kasalligi bilan kasallanish darajasi 2016 yildagi 46,6 dan 2020 yilda 42,4 ga kamaydi. Aholining xavfli o'smalar bilan kasallanish darajasi 2016-yilda 100 ming kishiga 66,8 tadan 2020-yilda har 100 ming kishiga 71 taga yetgani kasalliklarning erta aniqlangani natijalaridan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosati kelgusida davlat taraqqiyotini ta'minlay oladigan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashga qaratilgandir va shu bilan birgalikda, ijtimoiy siyosatning oliy maqsadi barcha ijtimoiy guruhlarning o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratib berishdir. O'zbekistonda ijtimoiy adolatning mustahkamlanishi natijasida aholi turmush darajasi va sifati oshishi kafolatlaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlarning barchasidan kelib chiqib, kambag'allikka qarshi kurashishda davlatning roli eng muhim, degan xulosaga kelish mumkin. Yaqin yillarda ijtimoiy ta'minot uchun davlat xarajatlari yuqorilab bordi. Davlat xarajatlarining samaradorligi to'liq baholanishi uchun yuqoridagi ma'lumotlar yetarli va ishonchli vaqt manbaini talab etadi. Shunga qaramay, ma'lumotlarni o'rganish aholining turmush sharoitini yaxshilashda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatmoqda.

Aytish joizki, yangi O'zbekistonning ijtimoiy siyosat yo'li allaqachon aniq belgilab olindi va uni amalda qo'llash uchun kerakli bo'lgan barcha resurslar sarflanmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy soha uchun xarajatlar samaradorligini yanada oshirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Davletov, F., 2022. Public spending in the fight against poverty. [online] Review.uz. Available at: <<https://review.uz/en/post/gosudarstvenne-rasxod-v-borbe-s-bednostyu>> [Accessed 10 September 2022].
2. Adams, R (2002) Economic Growth, Inequality and Poverty: Findings from a New Data Set, Policy Research Working Paper 2972, World Bank, February 2002, and Ravallion, M and S Chen (1997) 'What Can New Survey Data Tell Us about Recent Changes in Distribution and Poverty?' World Bank Economic Review, 11(2): 357-82
3. Lin (2003), Economic Growth, Income Inequality, and Poverty Reduction in People's Republic of China, Asian Development Review, vol. 20, no. 2, 2003, pp. 105-24
4. HBhanumurthy and HMitra (2004), Economic Growth, Poverty, and Inequality in Indian States in the Pre-reform and Reform Periods, Asian Development Review, vol. 21, no. 2, 2004, pp. 79-99
5. Arndt, James, and Simler (2006), Has Economic Growth in Mozambique Been Pro-Poor?, Food Consumption and Nutrition Division Discussion Paper 202
6. Oecd.org. 2022. Growth. [online] Available at: <<https://www.oecd.org/derec/unitedkingdom/40700982.pdf>> [Accessed 11 September 2022].
7. Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Uzbekistan's Efforts to Reduce Poverty | Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. [online] Available at: <<https://mineconomy.uz/en/news/view/3520>> [Accessed 10 September 2022].
8. UzDaily.uz. 2022. "Uzbekistan International Poverty Reduction Forum" was held in Bukhara. [online] Available at: <<https://www.uzdaily.uz/en/post/73281>> [Accessed 10 September 2022].